
500 mln. soʻmdan ortiq mablagʻlar daftarlarda turuvchi oilalar hamda fuqarolarga yoʻnaltiriladi

Majburiy ijro byurosi Fargʻona shahar boʻlimi tomondan joriy yilning noyabr oyida byuro ish yurituvda boʻlgan ijro hujjatlarini ijrosini taʼminlashda davlat boji, jinoiy jarimalar, maʼmuriy jarimalar undiruv va davlat foydasiga oʻtgan tovarlar sotilishidan tushgan mablagʻlar hisobidan 1 mlrd. 86,8 mln. soʻm undirildi hamda maxalliy byudjet hisobiga oʻtkazildi.

Undirilgan 1 mlrd. 86,8 mln. soʻmdan 50 foizi, yaʼni 543.4 mln.soʻm pul mablagʻlari "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" va Temir daftar"da turuvchi oilalar hamda fuqarolarga yoʻnaltiriladigan jamgʻarmalar hisobiga oʻtkazildi.

Fargʻona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-12-01 21:47:27